# SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI, TAKOMILLASHISHI VA HUQUQIY ASOSLARI

***Boybosinova Shaxlo Meles qizi***

***TDIU "Davlat auditi" fakulteti "Soliqlar va soliqqa tortish " ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq siyosatining iqtisodiyotdagi o'rni, uning mohiyati hamda davlat moliya tizimidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, soliq siyosatini takomillashtirish jarayonlari, soliq tizimini modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishdagi roli yoritib beriladi. Maqolada soliq siyosatining huquqiy asoslari, xususan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida soliq munosabatlarini tartibga solish masalalari ko'rib chiqiladi

**Kalit so'zlar.** Soliq siyosati, Soliq kodeksi, Konstitutsiya, soliq ma'murchiligi, fiskal siyosat, soliq yuki, raqamlashtirish, Laffer egri chizig'i, investitsiya muhiti, xufyona iqtisodiyot, risk-tahlil, iqtisodiy o'sish.

**Kirish.** Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda samarali soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, u nafaqat moliyaviy resurslarni jamlash, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli soliq siyosatini to'g'ri tashkil etish va uni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Davlat soliq stavkalari, imtiyozlar va soliq ma'murichiligi orqali iqtisodiy

faollikka ta’sir ko‘rsatadi, ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlarini rag‘batlantiradi hamda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, soliq siyosati davlat va jamiyat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim instrument hisoblanadi.


So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimini isloh qilish, uni soddalashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi soliq tizimini takomillashtirishda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur huquqiy hujjat soliq munosabatlarini tartibga solish, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, soliq tizimining raqamlashtirilishi, elektron xizmatlarning joriy etilishi va soliq jarayonlarining shaffofligini oshirish iqtisodiy muhitni yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Soliq siyosatining nazariy va huquqiy asoslarini o‘rganishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat moliya tizimi va soliq munosabatlarining umumiy huquqiy asoslarini belgilab beradi hamda fuqarolarning qonunlarda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyatini mustahkamlaydi. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi esa soliq tizimining tamoyillari, soliqlar va yig‘imlarning turlari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda soliq ma’muriyatchiligi masalalarini belgilab beradi. Soliq siyosatining nazariy jihatlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri masalalari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, Qodir Abdurahmonov, Said G‘aniyev hamda Baxodir Toshmurodovlarning ilmiy ishlari va o‘quv qo‘llanmalarida soliq tizimining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, soliq siyosatini takomillashtirish mexanizmlari hamda davlat byudjeti

daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur manbalar soliq siyosatini chuqur o‘rganish va uning amaliy samaradorligini baholashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Metadalogiya.** Mazkur tadqiqotda soliq siyosatining mohiyati, uning takomillashuvi va huquqiy asoslarini o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy kuzatish, tahlil va sintez, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari orqali soliq tizimining nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida soliq siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida moddalar tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini har tomomlama chuqur o‘rganish hamda asosli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar .** Soliq siyosatining samaradorligini tushunish uchun biz oxirgi 15 yillik davrdagi raqamlarga nazar tashlashimiz lozim. 2010-yillarda mamlakatimiz soliq tizimi haddan tashqari murakkabligi va tadbirkorlik subyektlariga yuklatilgan yuqori soliq yuki bilan ajralib turardi. O'sha paytda yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan soliq tushumlari tarkibida bilvosita soliqlarning ulushi o'ta yuqori bo'lgan.Soliq qo'mitasi va Statistika agentligi ma'lumotlarini qiyoslaganimizda, quyidagi tendensiyalarni ko'ramiz:




*Muallif ishlanmasi.1-rasm*

Soliq stavkalarining optimallashuvi: 2010-yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi bazaviy 9-10% bo'lgan bo'lsa-da, turli xil majburiy ajratmalar bilan birga umumiy yuk ancha yuqori edi. 2019-yildagi islohotlardan so'ng, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) 20% dan 15% ga, keyinchalik esa 12% ga tushirilishi iqtisodiyot uchun “nafas olish” imkonini berdi[1]. Agar 2010-yilda soliqlar va majburiy to'lovlar soni 13 tadan ortiq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular 9 taga tushirildi. Bu ma'muriyatchilik xarajatlarini keskin kamaytirdi.(1-rasm)Raqamli o'sish: 2010-yilda soliq hisobotlarini topshirish 100% qog'oz shaklida bo'lgan bo'lsa, 2024-2025 yillarga kelib bu ko'rsatkich to'liq elektron shaklga o'tdi. Soliq.uz sayti ma'lumotlariga ko'ra, “E-aktiv” va “E-ijara” kabi tizimlar xufyona iqtisodiyot ulushini oxirgi 5 yilda 10-12% ga qisqartirishga xizmat qildi[2].Kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, 2010-yildagi soliq siyosati ko'proq “yig'ish”(fiskal) xarakteriga ega bo'lgan bo’lsa, 2026-yilga kelib u “rag’batlantirish” modeliga o'tdi. Masalan, 2010-yilda kichik biznes subyektlari soni va ularning YaIMdagi ulushi hozirgi ko'rsatkichlardan deyarli ikki barobar past edi. Bu esa soliq yukining kamayishi to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik faolligiga ta'sir qilishini isbotlaydi.Soliq siyosatining huquqiy asosi sifatida yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamizning 63-moddasini alohida ta’kidlash kerak. Unda soliqlarning adolatlilik prinsipi shunchaki nazariya emas, balki qat'iy konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Shu nuqtayi nazardan, Soliq kodeksining 2020-yildagi yangi tahriri davlat va soliq to'lovchi o'rtasidagi munosabatlarda “aybsizlik prezumpsiyasi”ni joriy qildi. Ya’ni, qonunchilikdagi har qanday noaniqlik soliq to’lovchining foydasiga talqin qilinadi. Agar biz 2010-yillardagi soliq statistikasiga nazar tashlasak, o'sha paytdagi tizim ko'proq ekstensiv yo'ldan borganini ko'ramiz. Ya'ni, budjet tushumlarini ko'paytirish uchun soliq turlari ko'p, stavkalar yuqori bo'lgan, biroq bu tadbirkorlarni “soya”ga kirishga majbur qilgan.2019-yildan boshlangan islohotlar zanjiri esa mutlaqo yangi intensiv bosqichni boshlab berdi. Bu yerda asosiy urg'u stavkani oshirishga emas, balki hamma soliq to'lashi uchun qulay muhit yaratishga qaratildi. Masalan, QQS stavkasining 2023-yildan 12 foizga tushirilishi, avvaliga budjetda biroz "bo'shliq" hosil qilishi mumkin degan xavotirlar bo'lgan edi. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatdiki, stavka tushishi bilan tadbirkorlar o'z daromadlarini ochiq ko'rsata boshladi va soliq bazasi kengaydi. Bu iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan Laffer nazariyasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi muvaffaqiyatli namunasi bo'ldi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotimizni yakunlar ekanmiz, soliq siyosati shunchaki raqamlar yig'indisi emas, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy yuzi ekanligiga amin bo'ldik. 15 yillik davrni tahlil qilish asnosida quyidagi fundamental xulosalarga keldik.Islohotlar natijadorligi: 2010–2025 yillar oralig’ida O’zbekiston soliq tizimi ekstensiv rivojlanishdan intensive rivojlanishga o’tdi. Soliq stavkalarining pasayishi budjet tushumlarini kamaytirmadi, aksincha, soliq bazasining kengayishi hisobiga tushumlar barqarorligini ta’minladi. Bu “Laffer egri chizig’i” nazariyasining amaldagi yorqin isbotidir.Raqamli inqilob: Soliq ma’murchiligining raqamlashishi korrupsion omillarni minimumga tushirdi. Endilikda inson omili aralashmagan holda Risk-tahlil tizimlari orqali soliq to’lovchilar saralanmoqda. Bu esa halol tadbirkorlar uchun yashil yo’lak vazifasini o’tayapti.Huquqiy kafolat: Yangi

Konstitutsiya va Soliq kodeksi soliq to’lovchini davlat oldidagi obyekt emas, balki teng huquqli hamkor darajasiga ko’tardi. Bu esa aholining soliq madaniyatini oshirishda eng muhim qadamdir.Kelgusida soliq siyosatini yanada takomillashtirish uchun mahalliy soliqlarning ulushini oshirishni taklif qilamiz. Bu hududiy hokimliklarning o'z hududida biznesni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Zero, kuchli iqtisodiyotning kaliti adolatli va shaffof soliq tizimidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2020-y (o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021-y.
4. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. “Soliqlar va soliqqa tortish”. Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2020-y.
5. Malikov T.S. “Moliya: davlat moliyasi”. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2019-y.
6. Soliq siyosatining tahlili va asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoboti, 2024-y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari. [Elektron resurs]: www.soliq.uz (Murojaat sanasi: 2026-yil may).
8. Laffer A. “The Laffer Curve: Past, Present, and Future”. Heritage Foundation Backgrounder, No. 1765, 2004. (Xalqaro nazariy asos uchun).

9. Statistika agentligi (stat.uz) — O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘plami, 2010–2025-yillar.